

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

JURAYEVA GULXAYO BAXODIR KIZI

**NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA INGLIZ TILINI O'RGANISHDA
LINGVO-KOUCHINGGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING NAZARIY
VA AMALIY ASOSLARI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Jurayeva Gulxayo Baxodir qizi

Nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'rganishda lingvo-kouchingga asoslangan yondashuvning nazariy va amaliy asoslari.....3

Jurayeva Gulxayo Baxodir qizi

Theoretical and practical foundations of the lingua-coaching approach to learning English language in ESP classes.....23

Жураева Гулхаё Баходир кизи

Теоретические и практические основы лингво-коучингового подхода к изучению английского языка у нефелологических направлений..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

JURAYEVA GULXAYO BAXODIR KIZI

**NOFILOLOGIK YO'NALISHLARDA INGLIZ TILINI O'RGANISHDA
LINGVO-KOUCHINGGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING NAZARIY
VA AMALIY ASOSLARI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Ped2539 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya mirzo ulug'bek nomidagi O'zMUda bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz.ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Yana Yurevna Arustamyan
Filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar: Nurmanov Abdinazar Tashbaevich,
Pedagogika fanlari doktori, professor

Asqarova Shaxnoza Kamalidinovna
Filologiya fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «16» 09 soat 14 00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahar, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870)712-27-55; faks:(99870)712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz.)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 192 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 111720, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «5» 09 kuni tarqatildi.
(2023 yil «5» 09 daqi 130 -raqamli reestr bayonnomasi).



U.N.Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d (DSc), dotsent

F.T.Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d (PhD)

V.B.Fayziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim muassasalarida pedagogik amaliyotni takomillashtirishning innovatsion modellari amaliyotga keng tatbiq etilmoqda. UNESCO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha Xalqaro ta'lim konsepsiyasi¹, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning "Ta'lim va ko'nikmalar kelajagi 2030" loyihasiga asosan ta'lim sifatini oshirish, o'quv dasturlarini qayta ishlash va takomillashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy voqelik va ta'lim tendensiyalariga muvofiq pedagogik va psixologik faoliyatni takomillastirish o'quv faoliyati samaradorligini oshirish o'z imkoniyatlaridan oqilona foydalana oladigan, turli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga qodir bo'lgan faoliyat sub'ektini shakllantirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida chet tilni o'rgatish faoliyati samaradorligi bilim, ko'nikma va malakalar, talabalarining til va nutq kompetensiyalarini rivojlantirish standarti bilan taqqoslash, o'quv faoliyatini takomillashtirish, talabalar o'rtasida zarur chet tilni o'rganishga bo'lgan motivatsiya darajasini rivojlantirishni ta'minlaydigan o'z imkoniyatlaridan foydalangan holda nazorat qilish vositalari, shakllari va usullarini izchil takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Oliy ta'limda lingvo-kouching fenomeni pedagogika fani va amaliyotida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi pedagogik faoliyatni psixologik ta'minlash elementidir. Lingvo-kouchingning ahamiyati o'quv jarayonini samarali tashkil etish va kommunikativ rivojlanish darajasini oshirishni rag'batlantirishga qaratilgan. Lingvo-kouching talabalarga nafaqat kommunikativ faoliyatda, balki kelajakdagi tanlagan kasbida chet tilni amaliyotda qo'llashda ham yangi ko'nikmalarni rivojlantirish, o'zlashtirish va yuqori natijalarga erishishda yordam beradi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda oliy ta'lim oldidagi muammolarni hal etishning muvaffaqiyati ko'p jihatdan chet tilni o'rgatish jarayonida talabalarda kasbni muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun bilimga bo'lgan ehtiyojni oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Shuningdek, talabalar kasbiy faoliyatining turli vaziyatlarida chet tilga bo'lgan ehtiyojini anglash motivlarini shakllantirishning meyoriy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Mamlakatimizning amaldagi ochiqlik siyosati, xorijiy investitsiyalar oqimining o'sishi, yangi korxonalar soni yoshlarning zamonaviy bilim va xorijiy tillarni puxta egallashga intilishini jadallashtirmoqda². O'qitishda kouching sohasida to'plangan pedagogik tajribadan foydalanib, chet tillarni o'qitish jarayonida talabalar duch keladigan qiyinchiliklar, o'qituvchi va talabaning roli va o'zaro munosabatlarini ham aniqlaydigan yondashuvlar muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot

¹Incheon Declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (World Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, and Republic of Korea).

²Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлисуи народу Узбекистана от 20 декабря 2022 года. <https://president.uz/ru/lists/view/5774>

strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda chet tillarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, xorijiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari bo'yicha L.T.Axmedova, N.M. Axmedova, M.X. Gulyamova J.J.Jalolov, F.I.Ikromxonova, G.T.Mahkamova, H. Mamatqulov V.I.Normuratova, F.M.Rashidova, D.A.Ruzmetova, D.T.Pardaeva, T.Q.Sattarov, Z.M.Xazratova, va F. Shirinova tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlarining oliy ta'lim muassasalari chet til ta'limida lingvo-kouching texnologiyasining ahamiyati yuzasidan A.O.Azarova, M.P.Arpent'eva, I.V. Baranova, B. A. Bеликов, H.Галскова, Л. А. Савинков, Л. В. Кожанова, А. Мирюгина, И. Р, Рыбина, И. Подласий, И. Ю.Попова, В. П.Соколов, Н.К.С. Смотряева³lar ilmiy tadqiqot ishlarida muhokama qilingan. ⁴

Xorijlik olimlardan M.Strong, W.Baron, G.Nicholls, R.Smith, D.Lynch, R.Roger, J.Barrie S. Villiers, J. Screvener, C. Rogers, K.Smith, H.Brown, D.Hymes,

³ А.О. Azarova. Коучинговая модель иноязычного обучения социологов как фасилитатор их личностного и профессионального развития. Avtoreferatdokt. diss. –Moskva 2020.Беликов В. А., Савинков Л. А. Образование. Проблемно-ориентированный анализ на основе деятельностного подхода: моногр. Магнитогорск, 2004. Кожанова Л. В. Технология личностно-ориентированного подхода при обучении иностранному языку в неязыковом вузе // Актуальные проблемы деятельности подразделений УИС: сб. материалов Всерос. науч.-практ. конф. М., 2015. С. 720-721. Рыбина И. Р., Попова И. Ю. Использование практико-ориентированного подхода в обучении иностранному языку студентов неязыковых вузов // Устойчивое развитие регионов России: вызовы, риски, стратегии: материалы Международ. науч.-практ. конф. М., 2017. С. 310-315.Арпентьева М. Р. Академическое социально-психологическое консультирование и преподавание психологии в вузе. Калуга: КГУ, 2016.Соколов В. П., Тихонова В. И. Коучинг как новая модель развития персонала организации // Инновационный Вестник Регион. 2013. № 1. С. 1-4. |И.В. Баранова, Н.А. Мирюгина, К.С. Смотряева лингвокоучинг как современная технология обучения немецкому языку. Avtoreferatdokt. diss.-М., 2020.

⁴Villiers S. Sharing Our Understandings of the "Communicative Method". // Applied Linguistics: 2003, V. 2, 890 - p. Scrivener J. Learning Teaching. A guidebook for English language teachers. – London: Macmillan, 2009. – 434 p. Rogers C. Freedom to learn. –New York: Prentice hall, 1994. - 300 -p. СаттаровТ.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка): Автореф. дис... д-рапед. наук. – Т. 2000. – 32 с. Маматкулов Х. Хорижий тиллар бўйича педагоглар касбий компетентлигини ривожлантиришнинг илмий-услубий асосларини такомиллаштириш: автореф. докт. дисс. (DSc). - Ташкент, 2021. – 240 б.

S.Savignon, N.Chomsky, E.Boyd, A.Brockbank, I.McGill, J.McMillan, J.Hearn⁵larning asarlarida kouching va o'qitishning bir-biridan farqi hamda ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Ta'limda kouchingning samarali yondashuv sifatida tutgan o'rni, uning asosiy tamoyillari va modellari T .Weiss, T.Roby, T.Meyer, E.De Haan, R. Lofthouse, D.Leat, C.Towler, J.Whitmore, A.Brockbank, I.McGill, E.Parsloe, M.Wray, T.Gallwey, H. Williams, N.Edgerton, S.Palmer, M.Danilova, S.Savkin, D.Deyzi⁶ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Kouching ko'plab mamlakatlarda keng muhokama qilinganiga qaramay, lingvo-kouching ustida yangi yo'nalish sifatida O'zbekistonda birinchi marta tajriba o'tkazildi

Dissertatsiya tadqiqotining bajarilgan oliy ta'limi muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining "Kontrastiv tillarning lingvistik, tipologik xususiyatlari va ularni o'qitish metodikasi" yo'nalishi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq olib borilgan.

Tadqiqot ishining maqsadi nofilologik yo'nalishlarda ingliz tilini o'rganishda lingvo-kouchingga asoslangan yondashuvning nazariy va amaliy asoslarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

Lingvo-kouching yondashuvi asosida lingvistik kompetensiyani rivojlantirish muammosining metodologik, pedagogik va psixologik manbalarda o'rganilishini va chet til ta'limidagi o'quv jarayonlarining amaliyotdagi holatini tahlil etish;

lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning lingvokouching yondashuviga asoslangan metodologik imkoniyatlarini yoritib berish;

lingvo-kouching yondashuvi orqali chet tilda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish modelini takomillashtirish;

lingvokouching yondashuvi orqali chet tilda lingvistik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish;

Tadqiqot ishining ob'yekti. Lingvo-kouching yondashuvi asosida nofilologik yo'nalishi talablariga ingliz tilini o'rgatish jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga O'zbekiston Milliy universiteti, Jizzax politexnika instituti va Qarshi Davlat Universiteti institutlarining nofilologik ta'lim yo'nalishlaridan 501 nafar respondent-talabarlari jalb etilgan.

Tadqiqot ishining predmetini nofilologik yo'nalish talablariga ingliz tilida lingvistik kompetensiyani lingvokouchingga asoslangan yondashuvning shakl,

⁵ Nicholls G. Mentoring: the art of teaching and learning. – London: Pearson, 2002. – 240 p. Smith R., Lynch D. Coaching and Mentoring: A Review of Literature as it relates to Teacher Professional Development // International Journal of Innovation, Creativity and Change, 2014. – 895 p. Roger R., Barrie J. Mentoring-coaching: a guide for education professionals. – New York: Open University Press, 2007. – 272 p.

⁶ Weiss T. Coaching competencies and corporate leadership. - New York: St. Lucie Press, 2003. – 206 p. Robya T. A guide to support coaching and mentoring for school improvement. – New York: Open University Press, 2016. – 115 p. Meyer T. Creating competitiveness through competencies. - Randburg: Knowledge Resources, 1996. – 302 p. De Haan E. Relational coaching: Journeys toward mastering one-to-one learning. - West Sussex, England: John Wiley & Sons Ltd, 2008. – 156 p. Lofthouse R., Leat D., Towler C. Coaching for teaching and learning: a practical guide for schools, Guidance report. - Newcastle University, CfBT Education Trust, 2010. – 230 p.

metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: eksperimental, amaliy tadqiqotlar, introspektsiya, kuzatish, soʻrovnomalar, qiyosiy tahlil, baholash va matematik-statistik tahlildir.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nofilologik yoʻnalish talabalarining lingvistik kompetensiyasi “oʻqituvchi - kouch – talaba” oʻquv munosabatlariga taʼlim imkoniyatlari yangi tekisligini kiritish hamda integrallashgan, motivatsiyali, muammoli yondashuvlarni til va nutq kompetensiyalariga nisbatan komplekslash natijasida takomillashtirilgan;

talabalarining lingvistik kompetensiyasi auditoriya mashgʻulotlarida oʻquv faoliyatini individual-psixologik differensiyalash hamda oʻzlashtirishi past talabaning rivojlanish dinamikasini kuzatish, oʻzlashtirishi yuqori talaba muvaffaqiyatlarini tekshirish va qiyinchiliklarini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish modeli oʻqitishning dialogik xarakterini bosqichma-bosqich kuchaytirish, nutqiy idrok etishning lingvo-kouching mexanizmlarini oʻquv dasturlariga kiritish asosida takomillashtirilgan;

talabalarga ingliz tilini oʻzlashtirishga lingvo-kouching yondashuvi orqali ulardagi ichki salohiyatni namoyish etishga qaratilgan muloqotga kirishishda demotivatorlarni bartaraf etish, fikrni ifodalay olish, kasbiy leksikaga tayanish, kognitiv faoliyatni oshirishga qaratilgan usullarni integrativ taʼlim muhitida qoʻllash samaradorligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Lingvo-kouching texnologiyasi yordamida olib borilgan tadqiqot ishi tizimli, lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga asoslangan, shaxsiy-ijtimoiy-faoliyat, produktiv, motivasion qiymatli yondashuvlar qoidalariga asoslangan boʻlib, bu pedagogik-psixologik hodisalar jarayonining yangi imkoniyatlari mohiyatini ochib berishga imkon bergan;

taqdim etilgan tadqiqot materiallari va uslubiy tavsiyalar oliy taʼlim muassasasi oʻqituvchilariga, darslik va amaliy tavsiyalarni, chet tillarni oʻrganishni oʻzlashtirishda oʻqitish samaradorligini oshirish, talabalarining mustaqil bilim olish va oʻz-oʻzini rivojlantirish imkoniyatlarini ishlab chiqish, oliy taʼlim muassasasi talabalarida oʻquv faoliyatini rivojlantirish mazmunini tanlash boʻyicha modellar yaratish imkonini bergan.

chet (ingliz) tili fani misolida nofilologik yoʻnalishi talabalarining oʻzlashtirish darajasi turli darajadagi talabalar kontingentida oʻquv faoliyatini takomillashtirish samaradorligini oshirish uchun ishlab chiqilgan lingvokouching texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari tajriba-sinovdan oʻtkazilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda qoʻllanilgan nazariy maʼlumotlar va metodlar ishonchli manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil va mulohazalar, tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvistik kompetensiyani rivojlantirish muammosining metodik, pedagogik - psixologik adabiyotlarda o'rganilishi va chet til ta'limida o'quv jarayonlarining amaliyotdagi holatining tahlil qilinganligi, ingliz tilidagi "mentor", "coach", "teacher" kabi terminlarning mazmun-mohiyatining ochib berilganligi, lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati lingvo-kouching yondashuvining talabalarda lingvistik kompetensiyani rivojlantirishga oid lingvodidaktik imkoniyatlarining yoritib berilganligi, modeli va metodikasining takomillashtirilganligi, mazkur jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarning ishlab chiqilganligi hamda "Umumiy pedagogika amaliyoti va nazariyasi", "Chet til o'rgatish metodikasi" va "Chet tilni o'rganishda metodik muammolar" kabi fanlarning o'quv dasturlariga kiritilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Lingvo-kouching yondashuvi asosida nofilologik yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'rgatish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

nofilologik yo'nalish talabalarining lingvistik kompetensiyasi o'qituvchi - kouch - talaba o'quv munosabatlariga ta'lim imkoniyatlari yangi tekisligini kiritish hamda integrallashgan, motivatsiyali, muammoli yondashuvlarni til va nutq kompetensiyalariga nisbatan komplekslash natijasida olingan xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G003 – "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 27 fevraldagi 17.01/32-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz tili mashg'ulotlarida talabalarning leksik va grammatik kompetensiyalari lingvakouching yondashuvi asosida rivojlanishi ta'minlangan;

talabalarining lingvistik kompetensiyasi auditoriya mashg'ulotlarida o'quv faoliyatini individual-psixologik differensiyalash hamda o'zlashtirishi past talabaning rivojlanish dinamikasini kuzatish, o'zlashtirishi yuqori talaba muvaffaqiyatlarini tekshirish va qiyinchiliklarini aniqlashda qo'llashga doir takliflardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-A1-G005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunisligi va adabiyotshunisligi tarixini tadqiq etish" nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 27 fevraldagi 17.01/30-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar auditoriya mashg'ulotlarida o'zaro kommunikatsiyaga kirishish layoqati oshgan va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga erishilgan;

talabalarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish modeli o'qitishning dialogik xarakterini bosqichma-bosqich kuchaytirish, nutqiy idrok etishning lingvokouching mexanizmlarini o'quv dasturlariga kiritishiga oid taklif va tavsiyalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-

A1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 27 fevraldagi 17.01/32-son ma’lumotnomasi). Natijada, chet til o‘rganish samaradorligini oshirish jarayonida talabalarning ichki potensialidan samarali foydalanishiga erishilgan;

talabalarga ingliz tilini o‘zlashtirishga lingvokouching yondashuvi orqali ulardagi ichki salohiyatni namoyish etishga qaratilgan muloqotga kirishishda demotivatorlarni bartaraf etish, fikrni ifodalay olish, kasbiy leksikaga tayanish, kognitiv faoliyatni oshirishga qaratilgan usullarni integrativ ta’lim muhitida qo‘llashga oid tavsiyalar O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasini “O‘zbekiston” teleradiokanalida efirga uzatilgan “Ta’lim va taraqqiyot”, “O‘zbekiston yoshlari” nomli dasturlar senariysini tayyorlashda foydalanilgan (2023yil 10 iyuldagi 04-36-1070-son ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy til o‘qitish va o‘rganish vositalaridan foydalanishni o‘quv jarayoniga kiritish orqali til o‘rganish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarini aprotatsiya qilish. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan ilmiy ma’ruzalar shaklida taqdim etilgan.

Tadqiq natijalarini e’lon qilish. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta ilmiy maqola, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, shu jumladan, xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhativa ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Lingvo-kouching yondashuvi asosida talabalarning ingliz tili lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishning lingvodidaktik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida “lingvo-kouching” pedagogika-psixologiyaning bir elementi sifatida yangi yo‘nalish ekanligi haqida so‘z boradi va fan sifatida, *“teaching”*, *“mentoring”* va *“coaching”* tushunchalarining ma’nosi va ular o‘rtasidagi farqlar, shuningdek, chet til lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda lingvokouching yondashuvining ahamiyati to‘g‘risida xorijlik olimlarning ilmiy qarashlari muhokama qilinadi. Ushbu bobda kouching va lingvo-

kouching yondashuvining pedagogik amaliyotdagi maqsad vazifalari, asosiy tamoyillari va lingvodidaktik asoslari o'z ifodasini topgan.

Manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, *kouching* atamasi "kimnidir sport bilan shug'ullanishga, ishni yaxshiroq bajarishga yoki mahoratni oshirishga o'rgatish jarayoni"⁷, chet til ta'limida esa bu atama talabaga ma'lum bir fan bo'yicha qo'shimcha dars berish jarayoni sifatida qaraladi"⁸. Lingvo-kouching - bu talabaning chet tilni o'rganishdagi maqsadiga erishish uchun o'qituvchi kouch va talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlar jarayoni. Lingvo-kouching texnologiyasiga asoslangan ingliz tili darslarida talabaning o'zi nimani, qay darajada va qanday o'rgatishni belgilaydi. O'qituvchi kouchning asosiy vazifasi talabalarga grammatikani o'rgatish va ular bilan bo'limdan bo'limga ishlashdan iborat emas, balki u tilni qanday o'rganish texnikasini o'rgatadi va o'z natijasi uchun mustaqillik va mas'uliyatni rivojlantiradi. Kouching ingliz tilini o'rganish maqsadini belgilashga yordam beradi, bilim va ko'nikmalardagi kamchiliklarni aniqlaydi va talaba bilan birgalikda talaba uchun muhim bo'lgan natijaga erishish uchun harakat rejasini tuzadi. Lingvo-kouchning vakolat doirasi ingliz tili o'qituvchisidan biroz kengroqdir. U o'z o'rganuvchisiga nafaqat ingliz tilini o'zlashtirishga, balki o'zining yashirin qobiliyatini ro'yobga chiqarishga va ulardan samarali foydalanishga yordam beradi. Bundan tashqari, kouchlik ichki psixologik to'siqlarni yengib o'tishga va o'rganish uchun motivatsiyani topishga yordam beradi.

Xorijiy mualliflarning tadqiqotlarida lingvo-kouchingning quyidagi metodik elementlari aniqlangan:

Qobiliyatga ishonish: Talabalarni chet tilni o'rganishga qodir bo'lgan layoqatlarini namoyon qilish ularga tilni o'rgana olishiga ishontirish. Kouchlik talabaga bo'lgan ishonchni, qaysi o'qitish usullari uchun samaraliroq ekanligini va qaysi til kompetensiyalari unga ko'proq mos kelishini o'zi yaxshiroq bilishiga ishonishni o'z ichiga oladi.

Maqsadlilik: Lingvo-kouchingda maqsad asosiy ahamiyatga ega bo'lib talabadan uning yakuniy maqsadini aniqlaydi va u uchun muvaffaqiyatli bo'lgan natija va unga erishish mezonlarini aniqlash uchun bir qator savollar beradi.

Motivatsiya: Bu element talaba maqsadidan mantiqiy ravishda kelib chiqadi. Maqsad qanchalik aniq va batafsil shakllantirilsa, talaba unga erishishdan qanchalik ko'p foyda ko'rsa, uni amalga oshirish ustida shunchalik qattiq ishlaydi.

Avtonomiya va faol pozitsiya: An'anaviy ingliz tili darslari uchun kouchlik mashg'ulotlarida o'rin yo'q, unda talaba passiv pozitsiyani egallaydi, talaba uni "o'rgatishini" kutadi. Lingvo-kouchlik - bu o'quv rejasini tuzadigan ikki kishining hamkorligi bilan talabaning imkoniyatlarini ochib berishga, maqsadni belgilashga va o'zining shaxsiy imtiyozlaridan kelib chiqqan holda o'quv resurslarini tanlashga yordam beradi. Ushbu rejani amalga oshirish talabaga bog'liq.

Ingliz tilini hayot tarzi sifatida o'rganish: Kouchda ingliz tilini talaba hayotining bir qismiga aylantirish va unga nisbatan ijobiy munosabatni

⁷Onions C.T. The shorter Oxford English Dictionary. – Oxford: Oxford University Press, 3d edition, 1983 - <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>

⁸Апресьяна Ю. Д., Медникова Э. М. Новый большой англо-русский словарь. В 3-х томах. – М.:Русский язык, 1999. – р. 240

shakllantirish jamiyatda o'z yo'lini topishga yordam beruvchi vositalardan foydalanish va kelajagi haqida o'ylashni boshlaydigan mustaqil faoliyat sub'ektini shakllantiradi.

Fikr-mulohaza (feedback): Talabalar bilan bir yoki ikki haftada bir marta kouchlik mashg'ulotlari o'tkaziladi. Bunday yig'ilishlarda kouch barcha yuzaga kelgan savollarga javob beradi, oraliq natijalarni tahlil qiladi, yozma va og'zaki topshiriqlar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildiradi. Agar kerak bo'lsa, ish rejasi erishilgan natijalarga yoki talabaning o'zgartirilgan maqsadlariga muvofiq qayta ko'rib chiqilishi va tuzatilishi mumkin.

Xususan, Tom Batler Boudonning fikricha, "kouching" – nafaqat qat'iy muayyan vaziyatlarda kiritilishi va qo'llanilishi mumkin bo'lgan metod, balki o'zini nazorat qilish, odamlar bilan muloqot qilish, fikrlash va mavjud bo'lish usuli⁹. To'g'ri, kouchlik biror yangilikni o'rgatmaydi, bu usulning maqsadi talabalarining yashirin iste'dod yoki mahoratini qanday ochib berishni tartibga solishga qaratilgan. Tadqiqotchi sifatida u talabalarining o'quv jarayonidagi muammolar va qiyinchiliklari haqida ta'kidlar ekanmiz, lingvo-kouchingning o'z ahamiyatiga urg'u berishni tavsiya qilamiz. Birinchidan, kouch ichki potensialni safarbar qilish, zarur qobiliyatlarni rivojlantirish va yangi ko'nikmalarni shakllantirish orqali talabalarga maqbul vaqtda ular uchun muhim maqsadlarga erishishda yordam beradigan maslahatchidir. Shuning uchun lingvo-kouch – bu tilni va til o'rgatish texnikasini birlashtirgan professional o'qituvchi-murabbiy hisoblanadi. Lingvo-kouchingni asosiy vazifalari talabaning shaxsiy eng yaxshi jihatlarni ochib berish, til o'rganish strategiyasidagi kamchiliklarni aniqlash, hamkorlikni rivojlantirish, talabalarni o'zlarini mustaqil o'rgatishga yo'naltirish va muammolarning hayoliy yechimlarini rag'batlantirishdan iborat.

Xorijiy mualliflarning tadqiqotlarida Rus olimasi V.N.Smironova, kouchni iste'dodlarimizning bog'boni va muvaffaqiyatimizning ko'makchisidir deya ta'riflaydi. U lingvakouching muhim holatlarda samarali bo'ladi deya ta'kidlaydi¹⁰. Natijada, kouching texnologiyalarini qo'llash orqali talabalar maqsadlariga tezroq samarali tarzda erishishlari va jarayondan zavq olishlari mumkin. Shuning uchun kouching yondashuvining asosiy tamoyillari sheriklik, potentsialni ochish natijadorlik va boshqalardan iborat (1-rasm.).


Tadqiqotimizning ushbu bobida GROW modeli tahlil qilingan bo'lib, tilni o'rganuvchi bilan suhbatni rejalashtirish lingvo-kouch yordamida amalga oshadi va mazmunli natijaga erishiladi¹¹. M. Downey olimning ta'kidlashicha, model GROW nazariyadan emas, balki eng muvaffaqiyatli amaliyotdan kelib chiqqan. Lingvo-kouching bosqichlarini faoliyat jarayonida boshqaradigan, muhokama qilingan prinsiplarni birlashtirish natijasida talabalarining lingvistik til ko'nikmalarini rivojlantirish darajasini va shaxslararo o'zaro ta'sir uslublarini bizga tadqiqot qilinayotgan hodisa haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishga va uni universal fazoviy model sifatida tasvirlashga imkon beradi.

⁹Boudon T. John Witmore – Coaching of higher efficiency. – New York: University Press, 1992.– p. 54

¹⁰Максимов В. Е. Коучинг от А до Я. – Санкт Петербург: Речь, 2004. – стр. 86

¹¹Downey M. Effective Coaching, lessons from the coaches' coach. – Moscow: Добрая книга, 2008. – p. 52

Biz tadqiqotimizda talabalarning lingvistik til ko'nikmalarini rivojlantirish modelini aks ettiradigan talabalar bilan munosabatlar jarayonida lingvo-kouchingdan xabardorlik va mas'uliyat, birdamlik va o'zaro ta'sir, moslashuvchanlik, hamkorlik, iyerarxik rivojlanish va monitoring kabi tamoyillardan foydalandik (1-rasm).



1–rasm. Lingvo-kouchingning asosiy tamoyillari

Natijada, biz lingvistik kompetensiyani rivojlantirishning quyidagi ta'rifini taklif qilganmiz, buning asosida uni shakllantirishning pedagogik modeli muayyan baholash mezonlari, ijtimoiy-pedagogik sharoitlar va innovatsion texnologiyalar yordamida ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Demak, lingvokouching – bu chet tillarini o'rganishning zamonaviy usuli bo'lib, talabaning motivatsiyasi va shaxsiy mas'uliyatini oshirish orqali ingliz va boshqa har qanday tilni o'zlashtirishga yordam beradi. Kouching texnikasi chet tilni o'rganishda an'anaviy yondashuvga qaraganda tezroq natijalarga erishish imkonini beradi. Kouch talabaning o'rganishida sherik va yordamchi sifatida ishlaydi.

Chet til ta'limida muloqot ma'lumotlar almashinuvining asosiy vazifasi ingliz tilini o'rganish paytida mumkin bo'lgan muayyan vaziyat yoki muammo haqida yagona nuqtai nazar va kelishuvni shakllantirishdir. Ushbu muammoni hal qilish

uchun ma'lum bir mexanizm, fikr-mulohaza (feedback) mexanizmi kabi shaxslararo o'zaro ta'sirga xosdir. Fikr-mulohazani yetarli darajada tushunishni ta'minlaydi, muloqotni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi, talabaga jarayonni kuzatishga imkon beradi va talabalarni o'z maqsadlariga erishishda qo'llab-quvvatlaydi.

Tahlil natijasida Oliy ta'limning zamonaviy ta'lim paradigmasida lingvistik kompetensiyaga asoslangan kouching yondashuvi sharoitida gapirish (speaking) nutqiy faoliyatini shakllantirish texnikasini o'rgatish katta ahamiyatga ega ekanligi o'z isbotini topdi. Fikrimizcha, zamonaviy universitet bitiruvchisi nafaqat bilimli, murakkab muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechishga qodir bo'lishi, balki uning kasbiy va shaxsiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismi bo'lgan o'z nutq madaniyatiga ham e'tibor qaratishi lozim. Til ta'limi majburiy ravishda uchta komponentni o'z ichiga olishi kerak: lingvistik kompetensiyani shakllantirish (tilni ilmiy bilish), nutq kompetensiyasi (ingliz tilining funksional registrlariga ega bo'lish), kommunikativ kompetensiya (barcha og'zaki va notijorat tillardan samarali foydalanish qobiliyati). Muloqotning turli sohalarida muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshirish uchun og'zaki vositalar¹². Gapirish (speaking) nutqi lingvistik kompetensiyaning bir qismidir" deb ta'kidlangan. Bu fikrni til orqali shakllantirish va gapirishni idrok etish va hosil qilish jarayonida kouching usullaridan foydalanish qobiliyatini anglatadi. Biroq, gapirish nutqi, o'rganilayotgan til me'yorlariga, ushbu til madaniyatining qo'llanilishi va an'analariga muvofiq muloqot jarayonida o'zaro ta'sir qilish muammolarini hal qilish uchun zarur va yetarli miqdorda assimilyatsiya qilinishi kerak. Ta'limning turli darajalari va bosqichlari uchun gapirish nutqi mazmuni davlat ta'lim standartlarida mustahkamlangan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Talabalarga ingliz tili o'qitish metodikasining lingvo-kouching yondashuviga asoslangan modelini takomillashtirish tizimi”** deb nomlanib, ushbu bobda o'quv faoliyatini samarali tashkil qilish, dars jarayonida turli xil metod, usul, vositalardan o'z o'rnida to'g'ri foydalanish, ularni uzviy bog'liq holda qo'llay olish ta'lim samaradorligining muhim omillaridan biri ekanligi isbotlangan. Bu esa *lingvokouching texnologiyasi* orqali amalga oshirilgan. Nutq faoliyati turlarini uyg'unlikda takomillashtirish talabalar egallagan bilim va ko'nikmalarini lingvokouching yondashuvi asosida muntazam mustahkamlab borishga yordam beradi. *Ushbu yondashuv* turli fanlardan olingan bilimlar, ko'nikma, malaka hamda tajribani hisobga olish, ularga tayanish ya'ni chet tilda kasbiy, kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni integratsiyalash, barobar takomillashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv talabalarda erkin muloqotga kirishishni rivojlantirishga qaratilgan yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llash, talabalarda mustaqil va gurux bo'lib ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Mazkur yondashuv ta'lim sifatining sezilarli ravishda ijobiy tomonga o'zgarishiga va talabalarning til o'rganishga bo'lgan motivatsiyalari kuchayishiga erishilgan. Integratsiyalashgan ta'lim avvalo, bir-biriga yaqin va mos bo'lganlingvokouching yondashuvida o'qituvchi va

¹² Мусаелян И.Ф. Формирование и контроль лексикограмматического компонента языковой компетенции у студентов неязыкового вуза: Дис ... канд. пед. наук. – М., 2011. – 256 с.


talabalarining lingvistik kompetensiyalari hamda ESPni o'qitishda lingvokouching yondashuvida samarali vositalar masalalari tahlil qilingan.

Lingvo-kouch sifatida aniqlik kiritish haqida gapirganda, o'qituvchilar o'quv jarayonining menejerlari bo'lib, ularning roli ko'rsatmalar berish, ishlash uchun kutish vaqtini belgilash va nihoyat natijalarni baholashdan iboratdir. Biroq, lingvakouchlar baholashga emas, balki o'rganishga ko'proq e'tibor qaratadilar. Lingvakouch talabalarga e'tibor qaratib, ularning individual va kognitiv strategiyalarini hisobga oladi, ammo bu holat o'qituvchilarning malakasini tavsiflamaydi.

Qisqa muddatli (intensive) o'qitish muddatini hisobga olgan holda, bu jarayonda lingvo-kouchning roli uning og'ir vaziyatni qanday boshqarish va hissa qo'shishi mumkinligini tekshirishga tayyor bo'lishi kerak. Agar talaba o'zgarishlarga amin bo'lmasa, intilish bo'lmaydi va natijada o'rganish ham samara bermaydi. Shu sababli, majburiyat kashfiyot jarayonidagi o'zgarishlar uchun juda muhimdir va lingvokouch talabani o'zlariga ishonishiga ishontirishi mumkin bo'lgan kuchli vosita bo'lib, ularning imkoniyatlari cheksiz ekanligiga yordam beradi. Fikrimizcha, lingvo-kouch o'qituvchi sifatida talabani qo'rquvdan qochish va davom etayotgan imkoniyatlarga ishtiyoq yaratish orqali talabada o'ziga bo'lgan ishonchini aks ettirishi kerak. Qisqa muddatda mo'ljallangan kompetensiyani rivojlantirish va takomillashtirish kamdan-kam hollarda o'zini oqlaydi. Talabalar bilan muammolarni hal qilishda lingvakouch o'z vakolatlarining bir qismi bo'lgan resistance, collaboration, empathy and openness (qarshilik, hamkorlik, hamdardlik va ochiqlik) kabi holatlarga duch kelishi mumkin. Shuningdek, olim oliy ta'lim muassasasida chet tilini o'rganish ushbu tilda so'zlashuvchilarning madaniy merosi bilan amalga oshirilishi kerakligini ta'kidlaydi. Binobarin, lingvo-kouchingda tilni o'qitish va o'rganish boshqa madaniyat elementlarini talabalarining kundalik hayotiga tatbiq etish sifatida qaralishi kerak.

Tahlil natijalariga ko'ra lingvo-kouchlar integral modelni taxmin qiladi va har bir talaba olishi mumkin bo'lgan motivatsiyaning bir qismi sifatida ayrim tarkibiy qismlarni ta'kidlaydi, bular integrativ, bu talabani o'zini chet til madaniyati bilan tanishtirish istagini bildiradi; va instrumental, talaba imkoniyatlarini kengaytirish yoki nufuzli ish topish uchun chet tilni o'rganishning amaliy ahamiyatini nazarda tutadi. Ayniqsa, bu ESP talabalarilari uchun juda muhimdir, chunki ular grammatika, lug'at, o'qish qobiliyatlari va kasblari bo'yicha nutq kabi ayrim bilimlarga muhtoj bo'ladi.

Lingvokouchingda o'qituvchilar tajribasini oshirish, talaba bilan talaba o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish, yuqori darajali fikrlashni oshirish va o'quv strategiyalaridan foydalanish, talabalarining bilimlari bilan bog'lanish orqali m'lum uzilishlarning oldini olishlari zarurdir. Natijada, talabalar ikkinchi tilni o'zlashtirishda o'z bilimlarini qanday namoyon etish va o'z fikrlarini bayon qilishni yoki o'z bayonotlarini og'zaki hikoya qilishni kuchaytiradilar.



2.rasm. Lingvo-kouching yondashuvda murabbiy va talaba roli

Ushbu bobda ochiq va yopiq test savollarni ishlab chiqish, T modeli, baholash ko'lam, mantiqiy tenglamalar piramidasi yoki Robert Dilts piramidasi kabi ko'plab vositalardan foydalanildi. Odamlarning o'zaro bog'liqligini nazarda tutadigan ushbu vositalarning barchasi beshta Amerikada mashhur psixiatr va psixolog Milton Erikson, tamoyiliga asoslanadi: 1) Barcha odamlar harakatchan bo'ladi; 2) Odamlar o'zlari xohlagan narsaga erishish uchun allaqachon barcha resurslarga ega; 3) Odamlar har doim o'sha paytda eng yaxshi tanlovni qilishadi; 4) Har bir xatti-harakatning ijobiy xususiyati bor; 5) O'zgarish muqarrar;

